

11. Бакиева, З. Р. (2022). Талабаларга компьютерли анимацияни ўқитишда анимация яратиш босқичлари. *Digital technologies in innovative education problems and solutions*, 1(1), 206-210.

12. Бакиева, З. Р., & Мамараджапов, О. Э. (2017). К вопросу о мобильном обучении с помощью современных технологий и язык программирования java. In *Информатика: проблемы, методология, технологии* (pp. 13-16).

13. Бакиева, З. Р., & Мухаммадхўжаев, Б. Б. (2018). Возможности информационно-коммуникационных технологий в формировании личности учащихся.

RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING TYUTORLAR AXBOROT KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI VA ROLI

Feruza Muxamadiyeva Ishnazarovna
Nizomiy nomidagi TDPU Informatika va
uni o'qitish metodikasi kafedrasida katta
o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizni rivojlantirish “Raqamli O‘zbekiston 2030” loyihasini amalga oshirish uchun ta'lim tizimini ma'lum bir jihatlarini raqamlashtirish ko‘zda tutilishi zarur. Raqamli ta'lim resurslari: ta'lim platformalaridan unumli foydalanish, ta'lim platformalarining standart vositalari qo‘llab-quvvatlaydigan dasturiy ta'minotni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta'lim resurslari, Google Classroom, online ta'lim, LMS, online sinfxona, Google.

Tyutorning axborot-ta'lim muhitidagi kompetentligi shaxsning qobiliyatlarini ta'riflovchi tizimli xususiyat sifatida tavsiflanadi, ya'ni yangi axborotlarni mustaqil ravishda qabul qilish, ularni baholash va yaratish; jarayon va ob'yektlarni shu bilan birga, o'zining individual faoliyatini modellashtirish va loyihalash; axborot jarayonining yangi a'zolarini o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim masalalarini yechish; o'zining kasbiy faoliyatida o'quv jarayoni

samaradorligini oshirishni ta'minlovchi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muhim jihatlardan biridir.

Tyutorlarning axborot kompetensiyasiga ega bo'lishi, turli axborot manbalari bilan ishlashi, kerakli materialni topish va undan foydalanishi, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda internet va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda raqamli ta'lim resurslari: ta'lim platformalari, portallar va saytlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

“Ta'lim platformasi”, “Onlayn ta'lim platformasi” – bu o'qituvchilar, ota-onalar, talabalar uchun o'quv resurslari to'plamini, ya'ni ta'lim sifatini qo'llab-quvvatlash va boshqarish uchun ma'lumot, vositalar va manbalarni taqdim etadigan interaktiv onlayn xizmatlar to'plamini o'z ichiga oladi. Bu Internet orqali ta'lim olishni ta'minlaydigan keng qamrovli, sodda va intuitiv tizimdir. Ta'lim platformalarining standart vositalari quyidagilarni qo'llab-quvvatlaydigan dasturiy ta'minotni o'z ichiga oladi:

- ta'lim mazmunini yaratish;
- kontentni yetkazib berish, ishlatish va takomillashtirish;
- kerakli ma'lumotlarni qidirish;
- kontent va ta'limni boshqarish;
- masofaviy va aralash ta'limni tashkil qilish uchun jamoalarni yaratish;
- ta'lim jarayonining borishi to'g'risida hisobot va tahlil qilish.

Ta'lim platformalari, portallari va saytlarining quyidagilarga imkoniyatlari mavjud:

- ta'lim jarayonini tashkil etishga tubdan yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish;

- pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va moslashtirish jarayonini soddalashtirish (platformada mavjud bo'lgan bilimlar bazasi, ta'lim portallari va saytlariga havolalar orqali elektron ta'lim resurslari, shuningdek o'rnatilgan instrumental tizimlarga kirish imkoniyati);

- ta’lim jarayonida o‘qitilgan fanlari bo‘yicha savollar, topshiriqlar va mashqlar bankini o‘z ichiga olgan test va diagnostika tizimlaridan foydalanish, savollar va topshiriqlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish imkoniyati;
- e-portfolio yordamida talabaning ijodkorligi va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish dinamikasini kuzatib borish;
- ta’limni boshqaruvchi yuqori turuvchi tashkilotlar bilan hujjatlar almashinuvini amalga oshirish.

Google Classroom ilovasi - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi fan doirasidagi o‘zaro muloqot vositasi hisoblanadi. Google Classroom orqali o‘qituvchilar kurslar yaratishi, talabalarga topshiriqlarni yuborishi va ularga izoh berishi, shuningdek, talabalarining fikr-mulohazalarini qabul qilishi mumkin.

E’lon - bu Google Drivega fayllarni, YouTube dan videolarni va tashqi manbalarga havolalarni qo‘shishingiz mumkin bo‘lgan matn. Google Docs formatidagi barcha fayllar bitta nusxada saqlanadi (tinglovchilarga faqat o‘qish rejimida ochiladi) yoki har bir foydalanuvchiga o‘zgartirishi (tahrirlashi) mumkin bo‘lgan nusxasi beriladi. Foydalanuvchi Google Docsda hujatlarni tashkil qilishi (matnli hujjat yaratishi mumkin), shuningdek, onlayn ravishda prezentatsiyalar yoki jadval yaratishi mumkin.

Google Classroom foydalanuvchiga haqiqatan ham qog‘ozsiz ishlarga o‘tishga, talabalar jamoasini yaxshilashga va talabalar uchun turli xil ko‘rsatmalar berishga, vaqtni tejashga, qog‘ozni tejashga va sinfning inverter modelini yaratishga imkon beradi. Google Classroom - o‘qituvchi yoki talabalar o‘quv jarayonidan tashqarida bo‘lganlarida foydali vosita bo‘lib, ular dars berishda davom etishlari va o‘tkazib yuborilgan darslarni davom ettirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muxamadiyeva, F. I. (2023). TYUTORLARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TARBIYA RESURSLARINING O‘RNI VA ROLI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(12), 63-68.
2. Mamarajabov, M., & To‘raev, R. (2021). O‘rgatuvchi elektron muhitni

yaratishga qo‘yiladigan metodik talablar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 295-305.

3. Мухамадиева, Ф. И. (2021). “ТАЪЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 1238-1242.

4. Баранова Н. Google Classroom: Как с нуля создавать онлайн курсы (версия 2020) // https://te-st.ru/entries/google_classroom/

5. Adashboyev Sh. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar . O‘quv – uslubiy majmua. Toshkent 2023.

6. Mukhamadiyeva, F. I. (2023). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF USING EDUCATIONAL RESOURCES IN EDUCATION WITH THE HELP OF SOCIAL NETWORKS. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 1(9), 19-6

7. Tuxtamatov X.R. Ma’lumotlarni aks ettirishning ko‘p o‘lchovli modeli va uning qo‘llanish sohalari. // *Results of National Scientific Research International Journal 2023 Volume 2| Issue 5 SJIF- 5.8, Researchbib 7.1 ISSN: 2181-3639*

8. Мухамадиева, Ф. И. (2018). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 170-172).

XORIJIY MAMLAKATLARDA ELEKTRON O‘QUV RESURSLARINI TA’LIM TIZIMIGA JORIY QILISHNING TAHLILI

O‘roqova Sharofat Bahodir qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Shovruqov Fazliddin Rustam o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari 2-bosqich talabasi

Zamonaviy axborot jamiyatida mediata’lim rivoji tendensiyalari. Dunyoning barcha davlatlarida kuzatilayotgan ta’lim inqirozining turli ko‘rinishlari ko‘pincha